

WEB-DIZAYN. WEB DIZAYNDA QO'LLANILADIGAN DASTURLASH VOSITALARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
G'ijduvon 2 son kasb hunar maktabi
Ro'ziyeva Anora Muxamadiyor qizi
Informatika fani o'qituvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning dasturlash ko'nikmalariga bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirilib Web-Dizayn tushunchasi, Web-saytlarni yaratish va undan foydalanish, Dizaynning turlari, grafik dizayn, sanoat dizayn, web-server, HTML (Hypertext Markup Language) tili, Elektron tijorat haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Dastur, dasturlash tillari, IT sohasi, grafik dizayn, sanoat dizayn, web-server, HTML dasturlash tillari

WEB-DESIGN. PRODUCTION OF PROGRAMMING EMBEDDED IN WEB DESIGN

Annotation: In this article, the concept of Web Design, creating and using websites, types of design, graphic design, industrial design, web servers, HTML (Hypertext Markup Language), and e-commerce are discussed in relation to shaping students' programming skills.

Key words: Program, programming languages, IT field, graphic design, industrial design, web server, HTML programming language.

Web-saytlarni yaratish va undan foydalanish ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda web-saytlardan nafaqat tijorat yoki namoyish vositasi sifatida, balki bilim berish maqsadlarida ham foydalaniladi. Rivojlangan davlatlar Amerika, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniyada dasturlash tillari yuqori darajada o'rin tutadi va sohaning eng yetuk mutahassislariga ega. Butun jahonda insonlar ish kuchidan ko'ra kompaniyalar tomonidan dasturchilar yordamida dasturlash tillari orqali yaratilgan robotlar va robot mashinalardan foydalanishni abzal bilishmoqda.

Bugungi kunda masofaviy ta'lim dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida qo'llanilib kelinmoqda. Masofaviy ta'limdan foydalanish natijasida vaqt va pulni tejash, ortiqcha ovvoragarchiliklarsiz bilim olish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunday imkoniyatlarni bizga web-sahifalar varatib beradi. Ma'lum predmetga tegishli ma'lumotlarni (matn, rasm, jadval, animatsiya va boshqalarni) sahifalarga joylab,

ularni doimiy ravishda to'ldirib, yangilab borish, o'quvchilarni bilimlarini baholash uchun nazorat test savollarini kiritish imkoniyatlari mavjud. Buning natijasida o'quvchining olgan bilimini nazorat qilish, baholash imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu esa web-texnologiyadan ta'limda foydalanishning eng optimal variantlaridan biri hisoblanadi.

Dizayn (ingliz tilidan *design* injener-konstruktor, lotinchadan *designare* o'lchab ko'rmoq. o'lchab bermoq) - bu ijodiy faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi sanoat buyumlarini formai sifatini belgilaydi. Bu sifat shuningdek buyumning tashqi qirralarini o'z ichiga olish bilan birga, asosan shu tuzilmaviy va funksional aloqadorlik xaridor hamda ishlab chiqaruvchi ko'zi bilan qaraganda buyumni yagona holatga keltiradi. Dizayn sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'langan insonni o'rab turgan atrof-muhitning barcha jabhalarini qurshab oladi.

Dizaynning turlari - dizaynerlik faoliyati loyihalash predmetining farqlanishi. loyiha ishining maqsadlari va metodlari hamda uning yakuniy natijasi bilan farqlanadi. Dizaynning quyidagi turlari mavjud:

- grafik dizayn,
- sanoat dizayn,
- web-dizayn.

Grafik dizayn

Grafik dizaynda - informatsion grafika, reklama va boshqalar bilan ishlanadi. Web-dizayn va grafik dizayn nomining okxshashligiga qaramasdan, dizaynning turli yo'nalishlari hisoblanadi. Web-dizayn ma'lumotni saytda tasvirlash uchun ishlatiladi. Ammo grafik dizayn bilan web-dizayn o'zaro bog'Uangan. Grafik dizaynda tayyorlangan illyustratsiyalar saytlarni bezashda keng ishlatiladi. Grafik dizayn aslida foydalanuvchiga uzatiladigan ma'lumotni qabul qilinishini loyihalashi kerak.

Grafik dizaynning yo'nalishlari:

1. Firma stili.
2. Shriftlar,
3. Plakat,
4. Grafik reklama,
5. Kitobiy grafika,
6. Gazeta grafikasi,
7. Jurnal grafikasi.

Sanoat dizayni - maishiy buy umlar va asbob-uskunalarni ishlab chiqishda. mashinasozlik obyektlarida, transport vositaiarida va bosb- qalarda ishlatiladi.

Bulardan tashqari dizaynning bir qancha ko'rinishlari mavjud. Bular: arxitektura dizavni, kiyim va altsessnariar dizayai, art- dizayn, reklama dizayni.

Web-dizayn (ingliz tilidan olingan bo'lib. web-design - web- sahifani loyihalash manosini bildiradi) - bu web-sahifani jihozlanishidir. Web dizayn sayt uchun huddi poligrafiya dizayni va qog'ozli nashrlar dastgohlari singari muhim rol o'ynavdi. Web-dizayn deganda nafaqat web sayt uchun grafikli elementlarni yaraiish, balki uning strukturasini loyihalash, unda harakatlanish vositalari, ya'ni butun saytni yaratish tushuniladi. Shu sababli ham biz ushbu qo'llanmada nafaqai web muharrirlarni, balki grafik muharrirlar. animator dasturlarni ham gapirib otishni ma'qul ko'rdik.

Sayt qancha ajoyib bezatilgan bo'lmasm, unda qulay va tushunarli harakatlanish chizmasi mavjud bolmasa, hammabop kerakli matnlar bo'lmasa, agar sayt yaxshi dasturchilar tomonidan tayyorlangan samarali dasturiy vositalarga ega bo'lmasa - bunday sayt tezda oz foydalanuvchilarini yoqotadi va undagi noqulaylik (hattoki u professional va munosib stilda tayyorlangan bo'lsa ham) muvofaqiyatsizlikka mahkum bo'ladi. Yaxshi web-dizayn saytning sahifalarini hamohanglik bilan birlashtiradi. Boshqacha aytganda, web- dizayn saytning joylashish o'rnini belgilaydi.

Web-dizaynni o'rganishda quyidagi uchta tushuncha muhim ahamiyat kasb etadi:

Web-sahifa, Web-sayt va Web-server

Web-sahifa - o'zining unikal adresiga ega bolgan va maxsus ko'rish dasturi yordamida (brauzer) ko'rilmuvchi hujjatdir. Unga matn. grafika, ovoz, yideo yoki animatsiya ma'lumotlar birlashmasi - muhimediyali xujjatlar. boshqa hujjatlarga giper murojaatlar kirishi mumkin.

Web-sayt - bir qancha web-sahifalarning mantiqiy birlashmasi. Inglizcha «site» (tarjimasi «joy») so'zining o'zbekcha talaffuzi. Umum- jahon o'rgimchak to'ri ma'lum axborot topish mumkin boigan va noyob URL bilan belgilangan virtual joy. Mazkur URL web-saytning bosh sahifasi manzilini koisatadi. O'z navbatida, bosh sahifada web- saytning boshqa sahifalari yoki boshqa saytlarga murojaatlar boiadi. Web-sayt sahifalari HTML, ASP, PHP, JSP, grafik va boshqa favllardan tashkil topgan boiishi mumkin. Web-savtni ochish uchun brauzer dasturidan foydaJaniladi. Web-sayt shaxsiy, tijorat, axborot va boshqa koiinishlarda boiishi mumkin.

Web-server - tarinoqqa ulangan kompyuter va undagi dastur hisoblanib. umumiy resurslarni mijozga taqdim etish yoki ularni boshqarish vazifalarini bajaradi. Web-serverlar maiumotlar bazalari va multimediyali maiumotlarni bir biriga moslashtiradi. Web- serverda Web-sahifa va Web-saytlar saqlanadi. Web-server - Internet yoki Internetga ulangan umumfoydalanishdagi axborot serveri. Unda hujjatlar va fayllar - audio, video, grafik va matn fayllari - saqlanib. ular foydalanuvchilarga HTTP vositalar orqali taqdim etiladi. Web- server nomi u umumjahon tarmogining qismi boMgani uchun kelib chiqqan. Maxsus dasturiy ta'minotga ega bo'lgan. bir yoki bir necha web-sayt fayllarini saqlash va ularga ishlov berish mumkin. Bir necha web-sayt bitta kompyuterda ishlaganda, web-server deganda web- sayt ishlovchi virtual makon

(dasturiy taminot va kompyuterdagi joy) tushuniladi. Shunga ko'ra ko'pchilik uchun «web-server» deganda «web-sayt» tushuniladi. Ko'p axborotni saqlovchi web-savtlar bir paytning okzida bir necha kompvuterda saqlanishi va ularga ishlov berilishi mumkin. Web-server mijozlarning web-saytga so'roviga javob beradi.

Bu tushunchalarga qo'shimcha web hujjat tushunchasini ham ko'rib o'tamiz.

Odatda maxsus **HTML** (*Hypertext Markup Language*) tilidagi hujjat. Web-hujjat jahon o'rgimchak uyasining asosini tashkil qiladi. Ular gipermatndan iborat bo'lib, foydalanuvchiga ajratib ko'rsatilgan sokz yoki jumlagga qaratib, ma'lumotlarni okqish. hujjatning boshqa qismiga yoki avni hujjat bilan giperhavola yordamida bog'langan boshqa web-hujjatga o'tish imkonini beradi. Web-hujjat, shuningdek. 8 matn, tasvir. tovush, videolarni mujassamlovchi gipermuhit ma'lumotni ham olz ichiga olishi mumkin. Web-hujjatni ochish, ularni o'qish yoki aks ettirish Internet brauzerlari yordamida amalga oshiriladi. Web- hujjat tushunchasi «web-sahifaar» va «web-saytlar» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Odatda «web-sahifa» atamasi web-hujjat atamasining sinofiimini biIdiradi, «web-sayt» atamasi esa yagona mavzu ostida birlashtirilgan yoki bitta tashkilot, muallif yoki foydalanuvchiga tegishli boigan sahifalar majmuasiga tegishlidir.

Munosib web-dizaynni yaratishda qatnashuvchi quyidagi element- larni sanab o'tish mumkin:

Shrift - web sayt ichida imkoni boricha bitta shrift, yoki odatda ikki-uchta bir-biriga o'xshash (oson qorishadigan) shriftlami qo'shib ishlatish mumkin bolgan xususiyatlar va tanlangan fonda o'qish mumkin bo lgan ranglarga ega bo'lishi lozim.

Abzats - imkoni boricha web saytning barcha sahifalarida matn va boshqa vizual materiallarni tekislashning (sozlashning) bir ko rinishlarida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Web-saytning rangli sxemasi - sahifaning oddiy matnini, havola va tashrif buyurilgan havolalami taqdim qilishning uch xil ranglarini belgjaydi. Rangli sxema. yqki turli mavzudagi saytning bo limlari uchun bunday sxemalaming bir nech korimshi sayming barcha sahifalarida takrorianishi lozim.

Web-dizayn o'zida belgilangan rangli va mantiqiy sxemani birlashtirgan qandaydir grafikli jihozlashni nazarda tutadiki, shuning uchun ish boshida saytni jihozlashning umumiy konsepsiyasini o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Barcha grafik elementlami ikkita katta sinfga ajratish mumkin: chizilgan va biror real voqelik fotosuratlari Saytni bezash ishlarida bu ikki tipni aralashtirib yubormaslik yoki ularni web saytning tematik voki matiqliy qismlariga to'g'ri taqsimlash maqsadga muvofiq. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki saytda har qanday tipdagi fto suratlarni illustratsiya sifatida ishlatishdan oldin ularni tegishli tarzda qayta ishlash (rang va tonda tuzatish, korreksiya) zarur.

Web-dizayning asosh maqsadi - saytni egasiga foyda (moddiy. manaviy) keltiradigan ko'rinishda taqdim qilishdan iborat. Fovda sayt orqali mollarni to'g'ridan-to'g'ri sotish orqali bo'lishi, shuningdek unga qo'shimcha firmalarni, mahsulotlarni reklama orqali yangi mijozlarni o'ziga tortish yoli bilan ham kelishi mumkin. Talimda esa bularga qo'shimcha o'quv resurslarini yetkazib berish, talimni boshqarish ishlarini amalga oshirish mumkin.

Bizga ma'lumki web-dizayner boshqa kasblarga nisbatan yosh (yangi) kasb hisoblanadi. Internetga bo'lgan talabning ortishi bilan, saytlarning dizayniga bo'lgan talab va web-dizaynerlar soni ham ortib bormoqda.

Endi web loyihalarning asosiy tiplari va ularni har birini vizual bezashga qo'yiladigan talablar bilan tanishib chiqamiz. Saytlar tarkibiga ko'ra quyidagi asosiy tiplarga bo'linadi:

Uy sahifasi (Домашняя страница) tushunchasining bir nechta ko'rinishi mavjud:

1. Alohida shaxsga tegishli web-sayt. Bu saytda shaxs haqidagi bir necha mavzudagi ma'lumotlar, matnlar, foto jamlanmalar berilishi mumkin. Odatda bunday saytlarga turli sohalarning (masalan, fan- texnika, madaniyat, sport va boshqa sohalarda) mashhur kishilari ega bo'ladi.

2. Brauzerda birinchi yuklanadigan web-sahifa. Saytdan foydalanish undan boshlanadi. Odatda, foydalanuvchi o'zining qayerda ekanligi va saytning boshqa sahifalarida nimalarni ko'rishi mumkinligi haqida uy sahifasidan ma'lumot oladi. Brauzer tomonidan dastur yuklangandan so'ng terminalda paydo bo'ladigan web-sahifaning, portalning, majmuaning birinchi sahifasi. Odatda, prezentatsiya va navigatsiya bo'yicha ham asosiy ish bajaradi.

Prezentatsion sayt - nomidan ko'rinib turibdiki, sayt firma, xizmatlar, mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni taqdim qiladi. Ma'lum sondagi sahifalarni o'zida birlashtirib. kamdan-kam holatda yangilanadi. Saytning asosiy vazifasi - taqdim qilinayotgan xizmatlar va uning afzalliklarini tashrif buyuruvchilargacha vizual jihozlash yordamida maksimal tezlik va samara bilan yetkazib bera olishdan iborat. Bunday loyihalar tartib qoidalar bo'yicha aniq, noyob dizayn, grafikli jihozlanish matnli ma'lumotlar oldida ustunlik qiladi.

Misol sifatida <http://www.loyalstudios.com> va <http://www.de-signchapel.com> saytlarida keltirilgan sahifalarni aytish mumkin.

Korporativ saytlar — tashkilotning (firmalar, korporatsiyalar) internet tarmog'idagi vakolatxonasi hisoblanadi va binobarin, bunday loyihalarda eng asosiy talab malumotni ya'ni grafika yoki matnning jihozlanishiga qaratiladi.

Informatsion resurslar - bu elektron kutubxonalar va gazetalar. Bunday tipdagi saytlarda ma'lumotlar bir sutkada bir necha marta yangilanadi. Ma'lumotlarning hajmi juda ham katta, va bunday saytlarni ishlab chiqishda shuni ta'kidlash kerakki, tashrif

buyuruvchi saytni tomosha qilish uchun emas - ular mazmuni uchun kelishadi. Yangiliklar nashri (misol uchun - <http://www.cnews.ru>) yoki <http://sight.nmi.ru> singari rasmlar galereyasida, loyihaning bosh maqsadi - yuqori tezlikda ma'lumotni tashrif buyuruvchiga taqdim qilish yoki bu ma'lumotni qidirish imkoniyatidan iborat. Har qanday grafikli bezaklar sahifaning hajmini oshirib yuboradi - ya'ni sahifaning yuklanish vaqtini oshirib yuboradi. Shuning uchun mumkin qadar bunday loyihalarda dizayn matnli ko'rinishda ishlab chiqiladi. Kartinkalar, fotografiyalar, grafiklar, sxemalar illustratsiyalar hisoblanadi.

Elektron tijorat - axborot texnologiyalariga asoslangan biznes hisoblanadi. Elektron tijorat (ingliz tilidan e-commerce) - internetda o'zining sayti va virtual magazini, shuningdek o'zining (firma yoki kompaniyaning) boshqaruv tizimi mavjudligi bilan asoslanadi. Elektron tijofatga quyidagilar kiradi: -

- elektron ma'lumot almashish (Electronic Data Interchange, EDI),
- elektron jamg'arma ko'chirish (Electronic Funds Transfer, EFS),
- elektron savdo (e-trade),
- elektron karmon (e-cash),
- elektron marketing (e-marketing),
- elektron banking (e-banking),
- elektron sug'urta xizmatlari (e-insurance).

References:

1. Ахмедов, б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности Кластерных систем в непрерывной образовательной Среде. Eurasian education science and innovation journal, 1(22), 15-19.
2. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S. Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of Higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.
3. Akhmedov, B. A., makhkamova, M. U. Aydarov, E. B. Rizayev, o. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information Technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804.
4. Akhmedov, B. A., majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, yu. A. (2020). Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in Development of higher education. Экономика и социум, 12(79), 805-808.
5. Akhmedov, b. A., Eshnazarova, m. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, r. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Экономика и социум, 12(79), 809-811.
6. Akhmedov, B. A., kuchkarov, Sh. F., (2020). Cluster methods of Learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43.
7. Akhmedov, b. A. (2021). Development of network shell for Organization of processes of safe communication of data In pedagogical institutions. Scientific progress, 1(3), 113-117.
8. Ахмедов, Б. А., шайхисламов, Н., Мадалимов, Т., Махмудов, қ. (2021). Smart технологияси ва ундан таълимда тизимида Кластерли фойдаланиш имкониятлари. Scientific progress 1(3), 102-112.